

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

OO‘T: 633.14; 631.559

KUZGI JAVDAR NAVLARINING RIVOJLANISH FAZALARI DAVOMIYLIGIGA SUG‘ORISH TARTIBLARI VA MA‘DAN O‘G‘ITLAR BILAN OZIQLANTIRISH ME‘YORLARINING TA‘SIRI

Xasanov Bobur Rustam o‘g‘li

TDMAU, Qishloq xo‘jaligi fanlari falsafa doktori (PhD), doktorant

ORCID ID: 0000-0001-8374-9073

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo viloyatining tog‘ oldi tipik bo‘z tuproqlari sharoitida kuzgi javdar navlari o‘simliklarining rivojlanish davrlari davomiyligiga sug‘orish tartiblari va qo‘llanilgan ma‘dan o‘g‘itlar me‘yorlarining ta‘siri o‘rganilgan va tahlil qilingan.

Abstract: The article studies and analyzes the influence of irrigation regimes and rates of applied mineral fertilizers on the duration of the growing seasons of winter rye varieties in typical sierozem soils of the foothills of the Kashkadarya region.

Аннотация: В статье изучено и проанализировано влияние режимов орошения и норм вносимых минеральных удобрений на продолжительность вегетационных периодов сортов озимой ржи в условиях типичных сероземов предгорий Кашкадарьинской области.

Kalit so‘zlar: Javdar, nav, ma‘dan o‘g‘it me‘yori, sug‘orish tartiblari, rivojlanish davrlari davomiyligi, «Shalola», «Falenskaya 4» va «Vaxshskaya 116».

Keywords: Rye, variety, dose of mineral fertilizers, irrigation regime, duration of development periods, «Shalola», «Falenskaya 4» va «Vaxshskaya 116».

Ключевые слова: Рожь, сорт, доза минеральных удобрений, режим орошения, продолжительность периодов развития, «Shalola», «Falenskaya 4» va «Vaxshskaya 116».

Kirish. Qishloq xo‘jaligi ekinlaridan mo‘l hosil olish uchun ilmiy asoslangan almashlab ekish usullarini qo‘llash, ekinlarni eng maqbul o‘tmishdoshlardan so‘ng joylashtirish, tuproqni qayta ishlashda o‘simlik ildiz tizimining yaxshi rivojlanishini ta‘minlash, suv-havo va oziqlantirish rejimini optimallashtirish, organik va mineral

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

o‘g‘itlardan unumli foydalanish, begona o‘tlar, kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kompleks choralar ko‘rish, ekish uchun davlat standartlariga javob beradigan urug‘lardan foydalanish, ekish muddatlari, me‘yorlari va chuqurligini to‘g‘ri belgilash, o‘simlikning o‘sinh davrida eng maqbul sug‘orish rejimini yaratish hamda hosilni o‘z vaqtida va sifatli yig‘ib-terib olish muhim ahamiyatga ega [1].

Jumladan, X.N.Atabayeva, B.M.Azizov va boshqalar, qishloq xo‘jaligi ekinlarida yuqori hosil olish uchun o‘simlikda barcha fiziologik jarayonlarning muvaffaqiyatli o‘tishi, jadal o‘sishi va rivojlanishi, shuningdek, sog‘lom va kuchli o‘simliklarga yaxshi rivojlanib, yuqori hosil berishi mumkinligini ta’kidlaydilar [2-3].

Material va uslublar. Dala tajribalari Qashqadaryo viloyatining ko‘kdala tumani “Oqquduq agro” fermer xo‘jaligida o‘tkazildi. Tadqiqotlarda, kuzgi javdarning ««Shalola», «Falenskaya-4» va «Vaxshskaya 116» navlarini ma‘dan o‘g‘it qo‘llanilmagan mutloq nazorat (o‘g‘itsiz) va ma‘dan o‘g‘itlar $N_{160}P_{80}K_{60}$; $N_{200}P_{100}K_{75}$; $N_{240}P_{120}K_{90}$ kg/ga me‘yorlari hamda sug‘orishning ChDNSga nisbatan 70-75-60 va 75-80-70 % tartiblarining kuzgi javdar navlari o‘simliklarining rivojlanish davrlari davomiyligiga sezilarli ta’siri ma’lum bo‘ldi.

Natijalar va munozara. Qashqadaryo viloyatining tog‘ oldi tipik bo‘z tuproqlari sharoitida olib borilgan tadqiqotlarimizda, me‘yorida o‘sgan, har bir rivojlanish davrlarini o‘z vaqtida o‘tagan o‘simliklarning rivojlanishi jadal bo‘lganligi kuzatildi.

Jumladan, tadqiqotlarimizda javdar navlari ekilgan kundan boshlab unib chiqishigacha bo‘lgan davr davomiyligiga nav, ekishdan boshlab tuplash va naychalashgacha bo‘lgan davr davomiyligiga ma‘dan o‘g‘it me‘yorlarining ham ta’siri sezilarli bo‘lganligi qayd etilgan bo‘lsa, huddi shunday ketma-ketlikda, ekishdan boshlab boshqalash, sut-pishish va to‘liq pishish davrlari davomiyligiga navlar, ma‘dan o‘g‘itlar bilan birga sug‘orish tartiblarining ham ta’siri borligi ma’lum bo‘ldi.

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

Tadqiqotlarimizda, kuzgi javdarning «Shalola»; «Falenskaya 4» va «Vaxshskaya 116» navlari ekilgan kundan boshlab to unib chiqishigicha bo‘lgan 9; 10 va 8 kunni o‘tagan bo‘lsa, bunda «Vaxshskaya 116» navi urug‘lari «Shalola» va «Falenskaya 4» navlari urug‘lariga nisbatan 1 va 2 kunga erta unib chiqqanligi qayd etildi (1-jadval).

Kuzgi javdarning «Shalola» navi sug‘orishning 70-75-60 % tartibida, ma’dan o‘g‘itlar qo‘llanmagan nazorat (O‘g‘itsiz) bo‘lgan 1-variantda ekishdan tuplashgacha bo‘lgan davr davomiyligi 43 kun, naychalash davri 144 kun, boshoqlash davri 181 kun, sut pishish davri 201 kun va to‘liq pishish davri esa 229 kunni tashkil qilgan bo‘lsa, ma’dan o‘g‘itlar $N_{160}P_{80}K_{60}$ kg/ga me’yori qo‘llangan 2-variantda yuqoridagi ko‘rsatkichlar ekish-tuplash, naychalash, boshoqlash, sut pishish va to‘liq pishish davrlari davomiyligi tegishli 41; 142; 180; 205 va 235 kun,

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

1-jadval

Kuzgi javdar navlari rivojlanish davrlari va o‘suvs davri davomiyligiga sug‘orish tartiblari va ma‘dan o‘g‘itlar me‘yorlarining ta‘siri

№	Navlar	Sug‘orish tartibi, %	Ma‘dan o‘g‘itlar me‘yori, kg/ga	Ekish-unib chiqish davri		Ekish-tuplash davri		Ekish-naychalash davri		Ekish-boshoqlash davri		Ekish-sut pishish davri		Ekish-to‘liq pishish davri	
				kun	kalendar muddat	kun	kalendar muddat	kun	kalendar muddat	kun	kalendar muddat	kun	kalendar muddat	kun	kalendar muddat
1	«Shalola»	70-75-60	Nazorat (O‘g‘itsiz)	9	24 okt	43	27 noy	144	8 mar	181	14 apr	201	4 may	229	1 iyun
2			N160P80K60	9	24 okt	41	25 noy	142	6 mar	180	13 apr	205	8 may	235	7 iyun
3			N200P100K75	9	24 okt	39	23 noy	140	4 mar	179	12 apr	207	10 may	237	9 iyun
4			N240P120K90	9	24 okt	38	22 noy	139	3 mar	178	11 apr	208	11 may	238	10 iyun
5		75-80-70	Nazorat (O‘g‘itsiz)	9	24 okt	43	27 noy	144	8 mar	183	16 apr	204	7 may	232	4 iyun
6			N160P80K60	9	24 okt	41	25 noy	142	6 mar	182	15 apr	207	10 may	237	9 iyun
7			N200P100K75	9	24 okt	39	23 noy	140	4 mar	181	14 apr	209	12 may	239	11 iyun
8			N240P120K90	9	24 okt	38	22 noy	139	3 mar	180	13 apr	211	14 may	241	13 iyun
9	«Falenskaya 4»	70-75-60	Nazorat (O‘g‘itsiz)	10	24 okt	44	28 noy	145	9 mar	183	16 apr	203	6 may	232	4 iyun
10			N160P80K60	10	25 okt	42	26 noy	144	8 mar	182	15 apr	207	10 may	238	10 iyun
11			N200P100K75	10	25 okt	41	25 noy	142	6 mar	181	14 apr	209	12 may	240	12 iyun
12			N240P120K90	10	25 okt	39	23 noy	141	5 mar	180	13 apr	210	13 may	241	13 iyun
13		75-80-70	Nazorat (O‘g‘itsiz)	10	25 okt	44	28 noy	145	9 mar	185	18 apr	206	9 may	234	6 iyun
14			N160P80K60	10	25 okt	42	26 noy	144	8 mar	184	17 apr	209	12 may	239	11 iyun
15			N200P100K75	10	25 okt	41	25 noy	142	6 mar	183	16 apr	211	14 may	241	13 iyun
16			N240P120K90	10	25 okt	39	23 noy	141	5 mar	182	15 apr	213	16 may	243	15 iyun
17	«Vaxshskaya 116»	70-75-60	Nazorat (O‘g‘itsiz)	8	23 okt	42	26 noy	143	7 mar	179	12 apr	199	2 may	228	31 may
18			N160P80K60	8	23 okt	41	25 noy	141	5 mar	178	11 apr	203	6 may	233	5 iyun
19			N200P100K75	8	23 okt	39	23 noy	139	3 mar	177	10 apr	205	8 may	235	7 iyun
20			N240P120K90	8	23 okt	38	22 noy	138	2 mar	176	9 apr	206	9 may	236	8 iyun
21		75-80-70	Nazorat (O‘g‘itsiz)	8	23 okt	42	26 noy	143	7 mar	181	14 apr	203	6 may	231	3 iyun
22			N160P80K60	8	23 okt	41	25 noy	141	5 mar	180	13 apr	205	8 may	235	7 iyun
23			N200P100K75	8	23 okt	39	23 noy	139	3 mar	179	12 apr	207	10 may	237	9 iyun
24			N240P120K90	8	23 okt	38	22 noy	138	2 mar	178	11 apr	209	12 may	239	11 iyun

**O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**
II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

ma’dan o‘g‘itlar $N_{200}P_{100}K_{75}$ kg/ga me’yori qo‘llangan 3-variantda 39; 140; 179; 207 va 237 kun, ma’dan o‘g‘itlar $N_{240}P_{120}K_{90}$ kg/ga me’yori qo‘llangan 4-variantda 38; 139; 178; 208 va 238 kunning tashkil qilganligi ma’lum bo‘ldi.

Bunda, nazorat (O‘g‘itsiz) bo‘lgan 1-variantga nisbatan, ma’dan o‘g‘itlar $N_{160}P_{80}K_{60}$ kg/ga me’yori qo‘llangan 2-variantda ekish-tuplash, naychalash, boshoqlash davrlari 2, 2 va 1 kunga erta, sut pishish va to‘liq pishish davrlari davomiyligi 4 va 6 kunga uzoq o‘taganligi aniqlangan bo‘lsa, bu ko‘rsatkichlar ma’dan o‘g‘itlar $N_{200}P_{100}K_{75}$ kg/ga me’yori qo‘llangan 3-variantda ekish-tuplash, naychalash, boshoqlash davrlari 2, 2 va 1 kunga erta, sut pishish va to‘liq pishish davrlari davomiyligi 2 kunga uzoq, ma’dan o‘g‘itlar me’yori $N_{240}P_{120}K_{90}$ kg/ga me’yori qo‘llangan 4-variantda esa, ekish-tuplash, naychalash, boshoqlash davrlarini 1 kunga erta, sut pishish va to‘liq pishish davrlarini 1 kunga uzoq o‘taganligi aniqlandi.

Tahlillar davomi, kuzgi javdarning «Shalola» navi, sug‘orishning 75-80-70 % tartibida olib borilganda esa quyidagicha tadqiqot natijalari qaydi qilindi. Jumladan, ma’dan o‘g‘itlar qo‘llanmagan nazorat (O‘g‘itsiz) bo‘lgan 5-variantda, ekish-tuplash, naychalash, boshoqlash, sut pishish va to‘liq pishish davrlari davomiyligi tegishli 43; 144; 183; 204 va 232 kun, ma’dan o‘g‘itlar me’yori $N_{160}P_{80}K_{60}$ kg/ga qo‘llangan 6-variantda ko‘rsatkichlar 41; 142; 182; 207 va 237 kun, ma’dan o‘g‘itlar $N_{200}P_{100}K_{75}$ kg/ga me’yori qo‘llangan 7-variantda 39; 140; 181; 209 va 239 kun hamda ma’dan o‘g‘itlar $N_{240}P_{120}K_{90}$ kg/ga me’yori qo‘llangan 8-variantda esa rivojlanish davrlar davomiyligi 38; 139; 180; 211 va 241 kun davom etganligi aniqlandi.

Bunda, nazorat (O‘g‘itsiz) bo‘lgan 5-variantga nisbatan, ma’dan o‘g‘itlar $N_{160}P_{80}K_{60}$ kg/ga me’yori qo‘llangan 6-variantda ekish-tuplash, naychalash, boshoqlash davrlari 2, 2 va 1 kunga erta, sut pishish va to‘liq pishish davrlari davomiyligi 3 va 5 kunga uzoq o‘taganligi aniqlangan bo‘lsa, bu ko‘rsatkichlar ma’dan o‘g‘itlar $N_{200}P_{100}K_{75}$ kg/ga me’yori qo‘llangan 7-variantda ekish-tuplash,

2025-yil 23-24 oktabr

O‘ZBEKISTON JANUBIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

naychalash, boshoqlash davrlari 2, 2 va 1 kunga erta, sut pishish va to‘liq pishish davrlari davomiyligi 2 kunga uzoq, ma‘dan o‘g‘itlar me‘yori $N_{240}P_{120}K_{90}$ kg/ga me‘yori qo‘llangan 8-variantda esa, ekish-tuplash, naychalash, boshoqlash davrlarini 1 kunga erta, sut pishish va to‘liq pishish davrlarini 2 kunga uzoq o‘taganligi qaydi qilindi.

Huddi shunday tendensiyalar kuzgi javdarning «Falenskaya 4» va «Vaxshskaya 116» navlarida ham kuzatilgan bo‘lib, «Falenskaya 4» navida ekish-tuplash davri 39-44 kun, ekish-naychalash davri 141-145 kun, ekish-boshoqlash davri 180-185 kun, ekish-sut pishish va to‘liq pishish davrlari 203-213 va 232-243 kun davom etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkichlar kuzgi javdarning «Vaxshskaya 116» navida yuqoridagi ko‘rsatkichlarga muvofiq 38-42; 138-143; 176-181; 199-209 va 228-239 kun davom etganligi ma‘lum bo‘ldi.

Shunday qilib, o‘sov davri davomiyligi kuzgi javdarning «Falenskaya 4» navida eng uzoq 232 kundan 243 kungachani tashkil qilgan bo‘lsa, «Shalola» navida 229 kundan 241 kungacha va «Vaxshskaya 116» navida esa 228 kundan 239 kungachani tashkil qilgan holda, «Falenskaya 4» navi «Shalola» naviga nisbatan 2-3 kunga, «Vaxshskaya 116» naviga nisbatan esa 3-5 kunga o‘sov davrini uzoq o‘taganligi aniqlandi.

Xulosa. Qashqadaryo viloyatining tog‘ oldi tipik tusli bo‘z tuproqlari sharoitida kuzgi javdarning «Shalola», «Falenskaya 4» va «Vaxshskaya 116» navlarini sug‘orish tartibi 75-80-70 %, oziqlantirishda $N_{240}P_{120}K_{90}$ kg/ga o‘g‘it me‘yorlari qo‘llanilganda o‘sishi va rivojlanishiga ijobiy ta‘sir etib, yuqori don hosilini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oripov R.O., Xalilov N.X. “O‘simlikshunoslik” – Toshkent. «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti» 2007. – B. 384.
2. Atabayeva X.N., Azizov B.M. “Bug‘doy” – Toshkent. 2008. –B. 136.
3. Xaidmuxamedova Z.L. “O‘simlikshunoslik” – Toshkent. 2010. – B. 92.

2025-yil 23-24 oktabr